



SOCIO-ECONOMIC LIFE IN THE TERRITORY OF TURKESTAN–UZBEKISTAN SSR IN THE 1920s

Nasiba Narzullayeva

PhD Candidate

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national-territorial delimitation, revolution, “Hujum” campaign, provisional government, volost, social class, bolshevik.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the issues of socio-economic life in the territory of Turkistan–Uzbekistan SSR during the 1920s. It highlights the changes that took place in society following the establishment of Soviet power, the formation of a new socio-economic system, and the processes of national-territorial delimitation. Particular attention is paid to changes in the living standards of the population. In addition, the article examines women’s education and the “Hujum” campaign.

XX ASRNING 20-YILLARIDA TURKISTON O‘LKASIDA IJTIMOY-IQTISODIY HAYOT

Nasiba Narzullayeva

O‘zMU tayanch doktoranti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlari: milliy-hududiy chegaralanish, inqilob, “Hujum” harakati, muvaqqat hukumat, volost, ijtimoiy tabaqa, bolshevik.

Annotasiya: Ushbu maqolada XX asrning 20-yillarida Turkiston-O‘zbekiston SSR hududida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalari tahlil qilindi. Inqilobdan keyingi davrda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, yangi siyosiy-iqtisodiy tizimning shakllanishi va milliy-hududiy chegaralanish jarayonlari natijasida jamiyat hayotida yuz bergan o‘zgarishlar yoritildi. Maqolada aholining turmush darajasidagi o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, xotin-

qizlar ta'limi, "Hujum" harakati ham tahlil etildi.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ НА ТЕРРИТОРИИ ТУРКЕСТАНА – УЗБЕКСКОЙ ССР В 1920-Е ГОДЫ

Насиба Нарзуллаева

Докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национально-территориальное размежевание, революция, движение «Худжум», Временное правительство, волюта, социальный слой, большевик.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы социально-экономической жизни на территории Туркестана – Узбекской ССР в 1920-е годы. Освещаются изменения, происходившие в обществе после установления советской власти, формирования новой социально-экономической системы и проведения национально-территориального размежевания. Особое внимание уделено изменениям уровня жизни населения. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы образования женщин и движение «Худжум».

Kirish. Tarixiy jarayonlardan ma'lumki, 20-30-yillar O'zbekiston tarixida o'z ahamiyati jihatidan juda muhim voqealar bilan tavsiflanadi. Rossiya imperiyasi makazida 1917 yil fevral oyida yuz bergan davlat to'ntarishi oqibatida 15-mart kuni Nikolay II taxtdan voz kechadi. Shu tariqa, mazkur davlatda podsholik hukmronligiga chek qo'yilib, respublika boshqaruvi joriy qilinadi. Ushbu keskin siyosiy o'zgarish qaram o'lkalar, xususan O'zbekiston hayotiga ham ta'sir o'tkazishi tabiiy edi. O'tish davrida yangi hukumat tashkil etilgach, eski va yangi hukumat vakillari o'rtasida ziddiyatli munosabatlar shakllanadi. Ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar natijasida jamiyatda yangi siyosiy hamda ijtimoiy qatlamlarning paydo bo'lishi yuz beradi. Ammo, jamiyatni mol-mulki, daromadiga ko'ra qayta sinfiylashtirilishi barqaror bo'lmagan ijtimoiy tizimning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Har bir tarixiy davrda ijtimoiy jarayonlarni barqarorlashtirish va rivojlantirishda jamiyatning o'rta qatlami muhim rol o'ynaydi. Yangi hukumat tashkil etilgach, o'tish davrida jamiyatning ijtimoiy ahvolini yaxshilashda yashirin iqtisodiyot manbalar va noqonuniy mablag'laridan foydalanish usullarini qo'llaydi.

Tahlil va natijalar. Shunday og'ir siyosiy davrda Turkiston bo'ylab har bir shahar, uyezd, volost va qishloqlarda eski ma'muriyat idoralari muvaqqat hukumat tomonidan tugatilib, o'rniga

jamoat tashkilotlari ijroiya qo'mitalari, ya'ni jamoat xavfsizligi deb nomlangan qo'mitalar tashkil topa boshladi.

Rossiyaning birinchi jahon urushidagi muvaffaqiyatsizligi, iqtisodiy inqiroz, uning oqibatida boshlangan ocharchilik ommaning noroziligini yanada kuchaytirdi. 1917 yil martdan boshlab aholi orasida aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni boshlagan, avombop shiorlarni o'rta tashlab, ommaning e'tiborini qozongan bolsheviklar 25-oktabrda zo'ravonlik yo'li bilan to'ntarish yasab, imperiya markazida hokimiyatni egallab oldi.

V.Lenin boshchiligida bolsheviklar hukumati tomonidan Rossiyaning boshqa hududlarida ham sovetlar hokimiyatini o'rnatish boshlandi.

Milliy-hududiy chegaralanish jarayoni 1924-yilda SSSR rahbariyatining maxsus qarorlari asosida boshlandi. Jarayon davomida har bir xalqning etnik tarkibi, tarixiy yashash joyi, til va madaniy xususiyatlari chuqur o'rganildi. Bu borada maxsus komissiyalar tuzilib, ular milliy birliklar chegaralarini belgilashda muhim rol o'ynadi.

O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy hududiy chegaralanish siyosatidan so'ng aholining stratifikatsiyasida sovet mafkurasiga asoslangan ijtimoiy tabaqalar paydo bo'ldi. O'zbekiston SSR tarkibida Turkiston ASSR, BXSr va XXSR tarkibidagi bir qancha hududlar ham kiritildi, Respublika dastlab tashkil etilgan yillari Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm hududlari hali to'la nazortga olinmagan edi. Hukumat o'z faoliyatini olib borayotgan bir paytda uning siyosati barcha hududlarni to'la qamrab olmadi. Yangi tashkil etilgan respublika hududida Turkiston ASSR davrida mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolar saqlanib qoldi. Turli ijtimoiy tabaqalarning yuzaga kelishi, yer islohotlari va kolxozlashtirish siyosatidan so'ng sovet jamiyatida turli tabaqalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Dastlab qabul qilingan konstitutsiyasida SSSRda yashaydigan aholi "grajdanin" deb ataldi. 1927 yildagi ko'pgina rasmiy hujjatlarda aholi xo'jaliklari

1. Batrak;
2. Kambag'al;
3. Oddiy ishlab chiqaruvchi;
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi kabilarga bo'lib tabaqalashtirilgan.

Ishlab chiqaruvchilarni ham, o'z navbatida, kichik, o'rta va savdo aylanmasiga va o'ziga to'q guruhlariga ajratilgan. Sovet hokimiyatining rasmiylari batrak, kabag'al kabi eski tuzum atamalardan voz kechish maqsadida aholiga nibatan yangi atamalardan foydalanildi. Masalan, batrakni proletar, kambag'alni esa yarimproletar atamallari bilan atashgan[1: 5]. Bunday atamalarni rasmiy hisobotlarda ham ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, yer islohotlaridan oldin aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli sovet hokimiyati tomonidan obdan o'rganilib tahlil etilgan va bu tahliliy ma'lumotlar hukumat rasmiy hisobotlarida ham o'z aksini topgan. A.Ikromovning yer

islohotlariga bag'ishlangan rasmiy hisobotida ham aholining ijtimoiy tabaqalari haqida ba'tafsil ma'lumot berib o'tilgan. Hisobotda respublikaning Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida aholisining ijtimoiy holati tahlil etilgan. Manbada A. Ikromov aholini sinfiy tabaqalarga bo'lib, ularning yer islohotlarining o'tkazilishiga oid ijtimoiy qarashlari haqidagi xulosalarini berib o'tgan. Unga ko'ra, aholi yarimproletar, kambag'al, o'rtahol, quloq, yirik quloq (pomeshchik) sinflariga bo'lib tahlil qiladi.

Ta'kidlash lozimki, hisobotlarda aholining eski tuzum va yangi davr tabaqalariga atamalarini qo'llanilishiga bir necha sabablar bo'lgan. Birinchidan, aholi vakillariga eski tuzumni yomon ko'rsatish va ularni qaram ijtimoiy tabaqa emasligini targ'ib qilish bo'lsa, ikkinchidan, sovet davlatining yangi ijtimoiy tabaqalar stratigrafiyasini tashkil etish ishlariga urg'u berilgan.

Yuqorida tahlil etilgan manbalar asosida, O'zbekiston SSR aholisini yer islohotlari yakunlanish davriga qadar quyidagi ijtimoiy tabaqalarga bo'lib chiqish mumkin: Boylar, ruhoniylar, ziyolilar, o'rtahol, batrak, chorikor, kichik yer egalari, kambag'allar, quloqlar, ishlab chiqaruvchilar, xizmatchilar [2: 287].

Ammo, shuni qayd etish lozimki, sovet hokimiyatining tashkil etilgan dastlabki yillarda davlat organlari va ularda ishchi-xizmatchilar sonining ortib borishi natijasida aholining xizmatchilar tabaqasi ham oshib bordi.

A.Ikromovning rasmiy hisobot nashrida chorikorlar haqida ham ma'lumot berib o'tilgan bo'lib, chorikor bu yer egasining yerida o'z mehnat quroli bilan ishlab, hosilning ma'lum qismidan o'zining mehnati va ish quroli uchun mehnat haqi olgan. Ammo boy xo'jalik foydani yoki hosilning katta qismiga egalik qilgan. Kambag'al esa ish quroli yo'q bo'lib, ish jarayonida faqatgina o'zining mehnati bilan ishtirok etadi va juda kam miqdorda haq olgan. Ushbu manbada shahar aholisi yirik boy, o'rtacha yer egalari, kichik yer egalari va ruhoniylarga bo'lib tabaqalashtirgan.

Ammo, shuni qayd etib o'tish lozimki, sovet hokimiyati tomonidan 1927-yilda boshlangan ommaviy kollektivlashtirish, quloqlashtirish, industrilashtirish va qatag'on siyosati oqibatida, 1930-yillar o'rtalariga kelib, O'zbekistonda yuqorida qayd etib o'tilgan boylar, ruhoniylar, o'rtahol, batrak, chorikor, kichik yer egalari, kambag'al kabi ijtimoiy sinfiy atamalar yo'q bo'ldi. Natijada, respublikada bir qator yangi turdagi jamiyat tabaqalari vujudga keldi. Ushbu turdagi ma'lumotlar bugungi kunda oliy organlarning hisobot hujjatlarida saqlanib qolgan. Shu jumladan, mulla, eshon, diniy ulomolar, yirik yer egalari va boylar eski tuzum tarafdorlari sifatida tabaqalarga bo'lindi. Sovet hokimiyati uchun ushbu tabaqalashtirish ishlari nima uchun zarur edi? N.I.Lenin vafotidan so'ng sovet hokimiyati tarafdori va ularga qarshi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy guruhlar yuzaga kelgan. I.V.Stalin hokimiyati to'liq mustahkamlanmagan bir paytda, sovet hokimiyatiga qarshi ijtimoiy-siyosiy guruhlar ta'sirini kamaytirish maqsadida, ishchi dehqon

inspeksiyasi xalq komissarligi, kompartiya vakillari ushbu jarayonlarni nazorat qilish, saylov huquqidan mahrum qilish ishlarida bosh-qosh bo'lishgan.

Aynan, O'zbekiston SSRda 1934-, 1935-, 1936-yillarda sudlanganlarning ijtimoiy kelib chiqishiga oid statistik ma'lumotlar O'zbekiston SSR MIQ arxiv hujjatlarida saqlangan. Ushbu statistik ma'lumotlarda jami respublika aholisining ijtimoiy kelib chiqishi quyidagi guruhlariga ajratiladi[3:35]: 1. Xizmatchilar; 2. Ishchilar; 3. Kolxozchilar; 4. Yakka tartibdagi mehnatkashlar; 5. Quloqlar; 6. Boshqalar (ziyoli, ruhoniylar va hokozo).

Umuman olganda, quloqlar xo'jaligi vakillarini qamash, surgun qilish, alohida soliqlarning joriy etilishi natijasida, 1930-yillarning oxiriga kelib, respublikada quloqlar sinfiy jamiyat sifatida tugatildi.

1924-1941-yillarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan masalalar bilan bir vaqtda ayollarning paranjisini tashlatish siyosati olib borildi. Oqibatda, ushbu masala ham respublika aholisining eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolaridan biriga aylandi. O'zMAda saqlangan ko'plab, ko'plab rasmiy hisobotda ayollarning parangi tashlashi va ularning teng huquqlilik masalasi davlat siyosati darajasida yoritilgan. Shunday muhim hujjatlardan biri O'zbekiston Adliya komissarining 1926-yilda "O'zbekistonda oila-nikoh huquqi" tezisi hisoblanadi. Tezida ma'lumot berilishicha, respublikada ko'pxotinlik qizlarning ota-onasining xohishi bilan turmush qurishi, qizlarning o'g'irlanishi kabi muammolar bo'lgan. Shuningdek, shaharlarda 14 yoshdan, hatto Qashqadaryo, Surxandaryo va Xorazm viloyatlarida qizlarni 9 yoshdan turmushga berish holatlari uchrab turgani ham ta'kidlab o'tilgan [4: 22-23].

Ayollarni ijtimoiy hayotga jalb etish ehtiyoji millat orasida ham mavjud edi, bu jadidlar g'oyalarida yaqqol ko'rinib qolgandi, mahalliy ziyolilar ham xotin-qizlarni ozod qilish uchun kurashishgan. Lekin taraqqiyparvarlar mahalliy ziyolilarda xotin-qizlarni ozod qilish masalasini qat'iy va butun borlig'i bilan keng qo'yish uchun yetarli kuch va tayanch yo'q edi. Bu masalani to'la-to'kis hal etish yetarli kuch va imkoniyatga ega bo'lgan sovet hukumati zimmasiga tushdi [5: 62-63].

Rossiya imperiyasi davrida hukumat mahalliy aholining diniy oila-nikoh, urf-odatlariga ko'p aralashmagan. Eski tuzum davrida boy-zodagonlarning zulmidan aziyat chekishi va ayollarning huquqlari cheklanishi mahalliy aholining eng og'irliq masalalaridan biri edi. Aynan, sovet hokimiyati respublikada o'rta qatlam aholi orasida ayollar huquqlarini himoya qilish siyosatini ham olib bordi. Ayniqsa, mahalliy dindorlar va ayollarning paranjisini tashlash borasida keskin ziddiyatli jarayon yuzaga kelib, ushbu holat yuzasidan jinoyatlar ko'paygan. Respublikani industrilashtirish, kalxozlashtirish va paxta yetishtirib beruvchi agrar davlatga aylantirish jarayonlarida ko'p va arzon ishchi kuchi zarur edi. Aynan, ayollardan ushbu maqsadda keng

foydalanish sovet hokimiyatining asosiy maqsadlaridan biri bo'lsa-da, ko'plab ish o'rinlarining yaratilishi o'rtahol aholining ishlab, daromad olishi uchun ham yaxshi imkoniyat edi.

R-837-fond tarkibida 1927-yil 23-maydagi Xalq komissarlari yig'ilishi stenografik hisobot hujjati saqlangan bo'lib, unda Adliya komissari I.Gaziyevning ma'ruzasi o'rin olgan. Komissar o'z ma'ruzasida ta'kidlashicha, milliy hududiy chegaralanish siyosatidan so'ng adliya xodimlari ko'proq quyi davlat apparatini sovetlashtirish, rayonlashtirish, ayollarni ozod qilish muammolariga ko'p e'tibor qaratib, ularning erkinligi masalasiga alohida urg'u bergan. Ammo, bu tashviqotlar natijasida qishloqlarda paranjini tashlagan ayollarni o'ldirish jinoyati ko'payib ketgan [6: 4].

Aynan, 1925-1926-yillarda ayollarning ozodligi, narxni tushurish ishlari, davlat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish jinoyatlariga birinchi navbatda e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, jamiyat hayotida ko'pxotinlik ham ko'paygani hujjat so'nggida aytib o'tilgan. Ayniqsa, Samarqand va Toshkentda ayollarga zo'ravonlik qilish, uylarini yoqib yuborish (paranjisini tashlagan ayollarga nisbatan) jinoyatlari ko'payib ketgan [7: 22-23].

“Hujum” harakati ommaviy safarbarlik tarzida shoshma-shosharlik bilan olib borilganligi tufayli ko'plab fojiali oqibatlariga olib keldi. Faqat 1927-28 yillari birgina O'zbekistonda 2,5 mingdan ortiq faol xotin-qizlar, qishloq, tuman kengashlarining a'zolari xotin-qizlar klublari va kuubxonalar mudirlari hayotdan judo bo'lganlar [8: 303]. Albatta, bu ko'rsatkich to'liq emas. “Hujum”ning oddiy ishtirokchilaridan qanchasi o'lgani yoki mayib-majruh bo'lgani, bu fojealar uchun mas'ullikni va javobgarlikni kim o'z zimmasiga olgani noma'lum. Ayollarni “ozodlikka chiqarish” kampaniyasi natijasida bir qancha ayollarimiz begunoh qurbon bo'ldilar. Er o'z xotinining, ota o'z qizining, aka o'z singlisining qotiliga aylandi. Manbalarning guvohlik berishicha, “1926-1928 yillarda faqat Samarqand viloyatida 300 xotin-qiz o'ldirilgan” [9: 22-27]. Jumladan, Samarqand okrugi Yuqori Darxon rayonida yovuzlarcha faol jamoatchi ayol Z. Tohirova o'ldirilgan, komsomol a'zosi bo'lgan uchun Rafoat eri Ismat tomonidan o'ldirilgan, “Hujum” fabrikasining ishchisi Ochilxon Sodiqovani badiiy havaskorlik to'garagiga qatnashganligi uchun eri bo'g'ib o'ldirilgan. 1927 yil 27 iyunda Qo'qon viloyati Buvayda tumanining Poloson qishlog'ida dehqon Abduqodir Hojimatov o'z ayolini paranji tashlab, faollik ko'rsatgani uchun osib o'ldirilgan, Andijon viloyatining Nazar Mahram qishlog'ida xotin-qizlar orasida ish yurituvchi faollardan Xadicha Eshboyeva va uning eri o'ldirilgan, Farg'ona yaqinidagi O'rmonzor qishlog'ida paranji tashlagani, xotin-qizlar yig'ilishiga qatnashgani uchun Surmaxon Shermatovani o'z eri o'ldirgan, Buxoroda Adolatxonning savodsizlikni tugatish kursida o'qiyotganini eri bilib qolib, o'ldirilgan. 1927 yilda Chust-Pop tumani Yangiobod qishlog'ida Zulunbi Yo'ldosheva, Chartoq rayoni Muchum qishlog'ida Zulfiyaxon Qo'qiboyeva va yana boshqa ko'plab ayollar sovetlarning inqilobiy yangiliklarining qurboni bo'lishdi. 1929 yilda

Marg'ildonda Nurxon akasi tomonidan o'ldirilgan[10: 14]. Andijon okrugi Izboskan rayoni Lug'umbek qishlog'i faoli, 1926 yil "Qo'shchi" uyushmasi a'zosi 1927 yil 7 martda birinchilardan bo'lib paranji tashlagan, 1929 yil 9-yanvarda mahalliy ijroqo'm raisi lavozimiga tayinlangan. Omonbibi vahshiylarcha 19 joyiga pichoq urib o'ldirilgan. Omonbibi o'ldirishda 14 kishi ishtirok etgan. 1928 yili buxorolik faol ayollardan Xosiyatoy Bahromova paranji tashlab, Komsomol safiga kirganligi bois, eri va uning aka-ukalari tomonidan o'ldiriladi[11: 61]. Avj olayotgan xotin-qizlarning ommaviy fojeali taqdiriga chek qo'yish maqsadida sovetlar "sopini o'zidan chiqar" maqoli asosida ayyorlik bilan mahalliy millat vakillarini o'zini o'ziga qarshi qo'ydi. Ya'ni "hujumchilar jallodlar"ini mahalliy xalq vakillarini "talab"iga binoan, o'limga mahkum etgan.

Ayollarning ijtimoiy-huquqiy hayoti bilan bog'liq jinoyatlarning ko'payib ketishi oqibatida sovet hokimiyati ularning ozod va erkin yashashi hamda ish bilan ta'minlanishini qonuniy kafolatlash orqali himoya qilgan.

Xulosa. Umuman olganda, XX asrning 20-yillarida Turkiston o'lkasida bunday ijtimoiy vaziyatda Sovet hokimiyati ko'plab xatoliklarga yo'l qo'ydi. Aholining asrlar mobaynida amal qilib kelayotgan diniy, milliy urf-odatlarini e'tiborga olinmasdan, mamlakatda ayollarning paranji tashlash masalasi siyosat darajasiga ko'tarildi. Natijada, ayollarning paranjisini tashlashga va sovet hokimiyatiga qarshi ijtimoiy guruhlar yuzaga kelib, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ko'paygan. Ayollarning paranji tashlashi natijasida zo'ravonlikka uchrashi, ularning sovet hokimiyatidan yanada panoh izlashga, ularning siyosati oqlanishiga sabab bo'ldi. Ayollar erkinligiga qarshi bo'lgan ijtimoiy guruhlar liderlari bo'lgan diniy ulamolarning aholi orasidagi roli va obro'yi yanada tushib ketdi.

Sovet hokimiyatining mamlakatda xalq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida amalga oshirilgan kolxozlashtirish va sanoatni rivojlantirish siyosatida ayollar arzon ishchi kuchi sifatida jalb etildi. O'z navbatida, ayollarning mehnat qilishi aholi o'rta ijtimoiy qatlamining yashash ko'rsatkichlari biroz bo'lsa-da yaxshilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Издольная аренда в Узбекистане.// По материалам переписей 1927 и 1929 г.г. в гнездах Андижана и Касан-Сай. – Самарканд, 1930. – С. 5.
2. Sh. Choriyev. O'zMA hujjatlarida O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tarixi (1924-1941-yillar). – Toshkent: "Bookmany print", 2024. – 287 b.
3. O'zMA, R-86-fond, 10-ro'yxat, 766-yig'ma jild, 35-varaq.
4. O'zMA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2217-yig'ma jild, 22-23-varaq.
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan. – T.: Sharq. 2001.B.62-63.
6. O'zMA, R-837-fond, 3-ro'yxat, 244-yig'ma jild, 4-varaq.
7. O'zMA, R-837-fond, 3-ro'yxat, 244-yig'ma jild, 23-24-varaqlar.

8. Пальванова Б.П. Эмансипация мусульманки. – М.: 1982. С.303.
9. Вольний А. Женский труд в промышленности. “Чачван горят” Т.: САОГИЗ.1991.С.22-27.
10. Нурхон бўғизланди // Янги йўл. 1929. №7. Б.14.
11. Ислам и женщины Востока. – Т.: 1990. Б.61.